



SAMIMIY TUYG'ULAR KUYCHISI

Yusuf ZIYATOV

Shoir olamni haqiqat nurlari osha ko'rib, yorqin hissiyotlar orqali qalam tebratadigan shaxs. U tashqi dunyoni emas, insonning ichki olamini ham nurli, turli xil illatlardan xoli ko'rishni istaydi. Bunday ezgu tilak unga ilhom baxsh etadi. She'r shoirning ko'ngil ochadigan sirdoshi, maslakdoshi. She'r so'zlar vositasida yaratilgan rang-barang obraz, xilma-xil qiyos, ramz va tashbehlar birligidan paydo bo'ladi. Shu jihatdan u oddiy so'zlardan farq qiladi. She'riyatning umrboqiyliigi ham shunda.

Tan olib aytish joizki, keyingi vaqtlarda "shoir"lar ko'payib qoldi. "she'r"lar ham ko'p. Marhum shoir Shavkat Rahmon ta'biri bilan aytganda "So'z bilan yurakni yondirguvchi kam..."

Biroq o'zbek adabiyoti, xususan she'riyati Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi ijod yo'llari orqali yangi bir o'zanga burilish yasagani ko'plab adabiyotshunos olimlar, ijodkorlar, qolaversa, butun she'riyat ahli tomonidan allaqachon e'tirof etib bo'lingan.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab ijtimoiy-siyosiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar badiiy adabiyotga, xususan, she'riyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Shaxsga sig'inish bilan bog'liq muayyan qoliplar o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Jumladan, "Jonajon partiyaning rahnamoligi va g'amxo'rliigi"ni madh etish yoki "oq oltin"ni yaratuvchi "oltin qo'llar" haqida balandparvoz gaplarni badiiy asarlar orqali tarannum etish o'rnini inson ruhiyatini tadqiq etish, ijtimoiy mavzular talqini egallay boshladi.

Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Mirzo Kenjabek, Muhammad Yusuf, Muhammad Rahmon kabi shoirlar ijodi o'zbek she'riyatiga yangicha ruh olib kirdi. Bu davrga kelib o'quvchi ham chinakam she'riyatni anglab etdi, badiiy so'z qudratini his qila boshladi. Chunki uzoq davom etgan bir xillik, ura-urachilik, badiiy topilmalardan xoli quruq bayonkashlikdan iborat jild-jild kitoblar o'z umrini o'tab bo'lgan edi.

G'irromlik qilmasa notiq agarda,
Yolg'on she'r aytishdan qaytsaydi shoir.
Miltiq o'qlariday gumbur gum qilib,
Havodan qarsaklar yasardim doim.



deb yozadi Shavkat Rahmon “Qarsak” she’rida. Shavkat Rahmon she’riatining xalqchilligi ham uning samimiyligida deyish mumkin. Uning barcha she’rlari qalb chig’irig’idan o’tgan, yuzaki bayonchilikdan xoli, haqiqatning badiiy ifodasi sifatida o’quvchining ongu shuuriga yetib boradi. Shavkat Rahmon she’rlarida samimiyat yetakchi, so’zga nisbatam mas’uliyat hissi kuchli.

Judayam o’qishli asar degan ibora bor. O’qishli she’r yaratish hazilakam ish emas. O’qishli she’r yurak amri, vijdon hukmi bilan yaratiladi. O’qishli she’r botiniy tuyg’ulardan tug’ilgan so’z, obraz va ifoda mukammalligidir. Chinakam she’r mana shunday fazilatlarga ega bo’ladi. Shuning uchun unday she’rlar o’quvchining qalbi, ruhi va hissiyotlariga ta’sir ko’rsatadi hamda o’ziga asir etib qo’yadi. Shunga erishmoq va bu yo’lda zahmat chekib ijod qilmoq chinakam shoirlik sanaladi.

Umrim ko’chkilarday jimjit, shiddatli,
Butkul tinmoq uchun bir kun bermalol.
Faqat yaxshi bo’lmoq judayam kamdir,
Juda kamlik qilar yashamoq halol.

deb yozadi u bir she’rida.

Biz – oddiy odamlar nazarida yaxshi bo’lmoq yoki halol yashamoq ulkan fazilat sanaladi. Lekin shoir bunga qoniqmaydi. Uning uchun yaxshi bo’lmoq yoki halol yashamoq har kim uchun odatiy holga aylanmog’i lozim. Vatan ravnaqi, el farovonligi, inson baxti uchun har kim katta-katta ishlar qilishi kerakligini ta’kidlaydi.

Men orom borligin unutib qo’dim,
Bag’ringa chaqinlar tegdi daf’atan.
Sendan-da go’zalroq narsa yo’qligin,
Sochim oqarganda angladim, Vatan.

deya vatanga bo’lgan mehr-muhabbatini shunday samimiy satrlar orqali ifodalaydi. Vatan haqida ko’plab she’rlar yozilgan. Qo’liga qalam olib, ijod qilishni boshlagan qalamkash borki, vatan haqida kuylagisi keladi. Uning betakror tabiatini, so’lim go’shalarini, bag’rikeng, mehnatkash, mehmondo’st xalqini she’riy satrlarda tarannum etgisi keladi. Lekin vatan haqida yozilgan hamma she’rlar ham o’quvchi ko’nglidan har doim ham munosib joy olavermaydi. Buning uchun Shavkat Rahmon ta’biri bilan aytganda, “...Toshlarni yorar kuychilar, Qanchlab sehrgar shoirlar kerak. Qancha bilim kerak, qanch kuch chidam...”

Juda kech angladim, nega buncha kech,



Anglasam bo'lmasmi o'ttiz yil avval.
Loaqal tug'ilmay turib anglasam,
Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal...

deb davom ettiradi u vatan haqidagi she'rini. Chunki asl vatan bo'lmog'I uchun vatanning chinakam farzandlari fidoyi, bilimdon, kuch-quvvatga to'la bo'lmog'I lozimligini badiiy so' vositasida chiroyli ifoda etadi. Shavkat Rahmonning ijodi jamiyatda yuzaga keladigan har qanday soxta da'volaru yolg'on fikrlarga qarshi isyon sifatida yuzaga kelgan deyish mumkin. She'riyatning azal-abad missiyasi ham haqiqat va adolat tamoyillarini obrazli tarzda aks ettirishdan iborat bo'lib kelgan. Shuning uchun ham badiiy so'z qudrati asrlar osha barhayot davom etib kelmoqda. Toki insoniyat mavjud ekan, erkka, haqiqatga, adolatga bolgan intilish hech qachon susaymaydi. Ijod ahli esa insonning botiniy tuyg'ularini kuylash barobarida, erkka, adolatga tashna qalblar nidosini ham adabiyot tili orqali olamga tanitadi.

Badiiy adabiyotning yana bir muhim vazifalaridan biri shundaki, komil inson obrazini yaratishdan iboratdir. Mumtoz adabiyotimizda, ayniqsa, tasavvuf ta'limotida komil inson g'yasi yetakchi masalalardan hisoblanadi. Lekin komil insonlar faqat kitoblardagina bo'lmaydi. Toza ko'ngil, sinchkov nazar bilan qaralsa, shundoq yonimizda ham ular borligini sezish, ko'rish mumkin. Afsuski, bunday odamlarni o'z vaqtida taniy olmaymiz, hayotlik vaqtlarida munosib darajada qadrlay olmaymiz. Fazilatlarini ko'rsak ham, ba'zan tan olgimiz kelmaydi. Bunday munosabat adolatdan emasligini bilamiz, lekin bunga doim ham amal qilavermaymiz. Shavkat Rahmon o'zining betakror ijodi va fazilatlarini bilan komillik xislatiga ega inson edi. U o'ttiz olti yil umr ko'rdi. Afsuski, hayotdan erta ko'z yumdi. Lekin shu qisqa hayoti davomida o'zidan ulkan adabiy meros qoldirib ketdi. She'riy kitoblari nashr etildi. Jahon adabiyotining nodir asarlaridan o'zbek tiliga tarjima qildi. Ayniqsa, ispan shoiri Garsia Lorca asarlaining tarjimasi o'zbek kitobxonlari uchun ham munosib sovg'a bo'ldi.

Mazkur maqola orqali o'zbekning otashin shoiri Shavkat Rahmon ijodining ma'lum qirralarini tadqiq etishni maqsad qildik. Shoirning ijodi hali ko'plab mutaxassislar, she'riyat ixlosmandlari tomonidan har tomonlama tadqiq qilinishga loyiq.